Said Shermuhamedov (1930-2016)



Said Shermuhamedov (1930-2016)

Said Shermuhamedov 1930 yil 12 mayda Buxoro viloyatining Qorakoʻl tumanida tugʻilgan. 1948-1953 yillarda Samarqand davlat universitetida ta’lim olgan. Oʻqishni tugatib, ushbu universitet aspiranturasida tahsilni davom ettirgan.

Falsafa fanining dolzarb masalalari boʻyicha 1960 yilda nomzodlik, 1974 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1994 yilda Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining a’zosi etib saylangan.

Said Shermuhamedov oʻzining 60 yildan ortiq mehnat faoliyati davomida Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining falsafa va huquq instituti ilmiy xodimi, ilmiy kotibi, direktor oʻrinbosari, respublika maorif vaziri, Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, Oʻzbekiston Milliy universitetining kafedra mudiri kabi mas’uliyatli lavozimlarda samarali xizmat qilgan va yurtimizda falsafa faniga doir masalalarni ilmiy tadqiq etish, ijtimoiy-gumanitar fanlar yoʻnalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishida faollik koʻrsatgan.

Said Shermuhamedovning rahbarligida oʻnlab fan doktorlari va fan nomzodlari tayyorlangan.

2023-09-26 21:08:39